

ASHTARXONIYLAR DAVLATI TASHKIL TOPISHI VA DAVLAT BOSHQARUVI

Ilmiy rahbar: Saidusmonov Bahrom

Turg'unjonova Muxlisa Ziyodullajon qizi

Chirchiq davlat pedogogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 3-bosqich 20/1-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada Ashtarxoniylar davlatining tashkil topishi, ashtarxoniylar davlatidagi boshqaruv tizimi, Nodir Muhammadxoning boshqaruvidagi ziddiyatlarning kuchayishi uning o'g'li Abdulaziz bilan bo'lgan taxt uchun kurashlar va Imomqulixon davrida markazlashgan davlatning qaror toptirish uchun bo'lgan harakatlari Subxonqulixonning xalq hayotini o'rganish uchun qilgan ishlari, Ashtarxoniylar davlat boshqaruvining Shayboniylar davlatining boshqaruvi bilan o'xshashligi va farqli jihatlari yoritib beriladi.

Atisect: The article deals with the formation of the Ashtarkhanid state, the administration system in the Ashtarkhanid state, the intensification of conflicts under the administration of Nadir Muhammadho, the struggle for the throne with his son Abdulaziz, and the efforts of the centralized state to find a solution during the time of Imam Qulikhan, the work of Subkhanqulikha to study the people's life, the administration of the Ashtarkhanid state administration, the administration of the Shaibani state. similarities and differences with

Kalit so'zlar: Yormuxammad, Astraxan, Pir Muhammad, Hoji Tarxon, Tarixi Muqumxoniy, Saroy qutvali

Key words: Yormuhammad, Astrakhan, Pir Muhammad, Haji Tarkhan, Tarikhi Muqumkhani, Saray Qutvali

Shayboniy Abdulmo'minxon halokatidan so'ng taxtga chiqqan Pir Muhammadxon (1599-1601) hukmronligi uzoqqa bormadi. Zero, Abdulmo'minxonga nisbatan suiqasd uyushtirilishi hodisasining o'zi mamlakatda markaziy hokimiyatning zaiflashib borayotganidan, yirik amirlar va mahalliy kuchlar mavqei oshib borayotgani- dan dalolat edi. Bunday paytlarda odatda ko'p narsa oliy xukmdorning shaxsiga, uning nechog'lik markaziy hokimiyat obro'sini tuta bilishiga bog'liqligi ham tabiiy. Ammo Pir Muhammadxonda shunday xususiyatlar yo'q edi. Natijada 1601 yili u taxtni qo'ldan boy beradi. Aniqrog'i, Samarqand hokimi Boqi Muhammadni poytaxt ixtiyorida tutish niyatida taxminan 50 ming qo'shin bilan unga qarshi chiqqan Pir Muhammadxon Bog'i shamol atrofida mag'lubiyatga uchraydi. Buxoro taxti esa Boqi Muhammad qo'lga o'tib, u xon deb ko'tariladi. Boshqacha aytganda, shu tariqa

shayboniylarning bir asrlik hukmronligiga nuqta qo'yiladi. Mamlakat va davlat tizginini endi yangi sulola ashtarxoniylar o'z qo'llariga oladilar.

Ikki og'iz ashtarxoniylarning kelib chiqishi haqida. Oltin O'rda (Jo'ji ulusi) zaiflashib borar ekan, uning bir qancha mayda xonliklarga bo'linish ehtimoli ham kuchaygan. Natijada XV asrning 30-yillarida Volgabo'yi yerlarida Ashtarxon xonligi yuzaga keladi. "Astraxan" Ashtarxonning ruslashganidir. Ashtarxon esa aslida "Hoji Tarxon" so'zidan olingandir. Tarxon turkiy tilli xalqlar hayotida imtiyozli unvonlardan hisoblanib, mashhur Xazar xoqonligi (VII—X) davri- danok ma'lum. Shu o'rinda o'quvchilarda, qanday qilib turkiy tilli xalqlarga tegishli yerlardan bo'lmish Hoji Tarxon Astraxanga aylangan, savoli tug'ilishi tabiiy. 1552 yili Rossiya Qozonni bosib olgandan so'ng 1554 yili Ashtarxon (Hoji Tarxon) xonligiga nisbatan bosqinchilik qiladi. Xonlikni bu vaqtda boshqarib turgan mang'it sulolasi namoyandalari lashqari bilan urushib yengadi va taxtga shu sulolalik Darvishalini o'tqazadi. Maqsad uni qaramlikda tutib, xonlikni o'z ta'siridan chiqarmaslik edi. Ammo ko'p utmay Darvishali ham Moskvaga bo'ysunishdan bosh tortgach, 1556 yili ruslar katta qo'shin bilan yana bostirib kelib, xonlikni butunlay yo'q qilib, bu yerlarni Rossiya imperiyasiniki deb e'lon qiladilar. Xuddi shu yillarda, manba tili bilan aytganda, "urus (nomila) mashhur nasroniylar bosqini dastidan (qochib) Yer Muhammadxon farzandlari Joni Muhammad sulton, Abbos sulton, Tursun Muhammad sulton, Pir Muhammad sulton va axli ayoli bilan Movarounnahrda kelgan"¹

Bu yerda Yor Muhamadxonga katta hurmat bilan qaraydilar. Chunonchi, u Abdullaxon II ning otasi Iskandarxon bilan yaqin munosabatda bo'lgani ma'lum. Iskandarxon uning to'ng'ich o'g'li Joni Muhammad sultonga qizi Zuxrabonuni turmushga berib, o'zaro aloqalarni karindoshlik iplari bilan mustahkamlaydi. Mazkur nikoxdan keyinchalik Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammadlar tug'iladilar. Xullas, Yer Muhammad va uning avlodlari shayboniylar xonadonining eng yakinlari va tayanchlaridan biriga aylanib, oliy xukmdorga xizmat qila boshlaydilar. Borib-borib ularning ham mavqelari oshib, oxiri yuqorida aytilganidek, mamlakatdagi e'tiborli viloyatlardan Samarqandni boshqarishga erishgan Boqi Muhammad oliy taxtni shayboniylardan tortib olishga ham muvaffaq bo'ladi. Shu bilan mamlakatda ashtarxoniylar sulolasining bir yarim asrlik hukmronlik faoliyati boshlanadi.

O'zbek davlatchiligi boshqaruviga yangi sulolaning kelishi amalda biron-bir keskin tarixiy burilishga sabab bulmagani tabiiy. Zero, boshdanoq ta'kidlab o'tilganidek, davlat asoslari bir, o'zgarmas bo'lgani holda har bir yangi sulola ularga suyangan ravishda o'z zamonasi shart-sharoitini hisobga olib faoliyat yurgizadi. Shu ma'noda Boqi Muhammadxon (1601-1605) oldida turgan vazifalarning eng muhimi

¹ Silsilot as-salotin, 120-124-varaqlar.

yana o'sha mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat edi. Chunki shayboniy Pir Muhammadxon zamonida zaiflashib qolgan markaziy hokimiyat sulolalar almashuvi bilan bog'lik voqealar natijasida yanada kuchsizlanib, Marv, Xorazm, Balx kabilardagi siyosiy kuchlar bosh- boshdoqlik yo'lini tuta boshlaganlar. Chunonchi, shayboniy Abdullaxon II ning sa'y-harakatlari bilan Buxoro ixtiyoriga kiritilgan Xorazm uning o'limidan sung turkmanlar yordamida yana itoatsizlik yo'liga o'tadi. Manbada yozilishicha, mahalliy sulola namoyandasi Hoji Muhammadxon (1559-60-1602) tez orada Amudaryo- dan Ashtarxon va Mang'ishloqqacha bo'lgan hududda o'z xukmini o'rnatishga erishadi. Boqi Muhammadxon bunga befarq qarab turolmasdi. Ammo ish urushgacha bormay "Boqi Muhammadxon va Hoji Muhammadxon o'rtasiga oksoqollar tushib oradagi nizo va qarama-qarshilik pardasini rafu daf qilib, tinchlik iplari bilan bog'laganlar"². Shundan so'ng mamlakat g'arbiy mulklaridan ko'ngli bir oz tasalli topgan Boqi Muhammadxon 1602 yili Balx tomon yurish uyushtiradi. Shunda ham ochikchasiga emas, Hisor yurishi bahonasi bilan. Mazkur tadbir muvaffaqiyatli tugab, Balx ham poytaxt doirasiga kiritiladi va uni Boqi Muhammadxon ukasi o'sha joyda. Vali Muhammadxonga tortiq qiladi. Bu yerni "fitna uchogiga aylantirgan" Yer Muhammad mirzo, Sherafkan mirzo na Arab otalik kabilar qochib, safaviy hukmdor shox Abbos I (1587-1629) huzuriga ketadilar. Balxning yana markaz ixtiyoriga qaytarilishi tashabbus Boqi Muhammadxon tomonda ekanidan dalolat berardi. U paytni ko'ldan bermay Andxud, Shibirg'on, Chechaktu, Maymana, Forob - Murg'ob daryosigacha bo'lgan yerlarni hamda Baglon, Badaxshon, Hisorni ham asliy markaz Buxoroga buysundirtiradi. Ukasi Vali Muhammadni vali axd deb e'lon qilib, o'zi poytaxt Buxoroga qaytadi.

Imomqulixon davrida xon xokimiyatining mavqei oshib, ichki vaziyat, siyosiy, ijtimoiy va iktisodiy barkarorlik yaxshilandi. Muhammad Yusuf (ibn Xoji Bako) ning "Tarixi Muqumxoniy" asarida berilishicha, "Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida na kambag'al, na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattik turdi, qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va ko'rchi bilan bozorlari mahallalarni aylanib, oddiy xalqning xaqiqiy axvolidan habardor bo'lib turardi". Umrining ohirida ko'zi ojiz bo'lib qolgan Imomqulixon 1642 yilda Makkaga xaj safariga jo'nab 1644 yilda Madinada vafot etadi.

Imomkulixondan so'ng taxtga uning ukasi Nodirmuxammad (1642-1645 yy.) o'tirdi. Nodimuhammad xon bo'lguniga qadar Balx hokimi bo'lib, uzoq vaqt taxtni boshqara olmadi. U hokimiyat tepasiga kelgach, mamlakatdagi axvol tezda o'zgarib ketdi. Chunki xon davlat ishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydigan zodagonlarga yaqinlasholmay, ular bilan til topisha olmadi. Undan tashkari Nodirmuhammadxon

² Abulg'ozii Bahodirxon Shajarayi turk, 157-158-betlar.

mamlakatning ijtimoiy siyosiy hayotida muhim rol tutgan amirlar va sultonlar mavqeini cheklash bilan birga mamlakatning asosiy viloyatlarini o'zining olti o'g'li, bir nabirasi va ikki jiyaniga bo'lib berdi. Jumladan, o'g'illari Abdulaziz Sultonga Samarqand, Xisrav Sultonga Badaxshon bilan Kunduz, Barxom Sultonga Toshkent, Subhonquli Sultonga Balx, Qutlug' Muhammad Sultonga Xisor, Abduraxmon Sultonga Shibirg'on va Andxud, nabirasi Kosim Sultonga Xuzor, jiyanlari Muxammadyor Sultonga Shaxrisabz, So'fi Sultonga Tolikon berildi.³

Davlat tizimi va ma'muriy boshqaruv. Ashtarxoniylarning davlat tizimi va ma'muriy boshqaruvi o'z tuzilishi hamda mazmun mohiyatiga ko'ra, Shayboniylar davri davlatchiligidan deyarli farq qilmas edi. Manbalarning ma'lumot berishicha XVII-XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida Hokimiyat markazda ham viloyatlarda ham asosan bir idora dargoxda mujassamlashib borgan. Shunigdek, shayboniylar davrida bo'lgani kabi - ashtarxoniylar davrida ham davlat tizimida o'troq turmush tarzi an'analar bilan birga ayrim yarim ko'chmanchilarga xos udumlar ham saqlanib kolgan. Bu davrda ham xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatdagi ichki va tashqi siyosatga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan xal etilgan. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy etilib, uning nomidan tangalar zarb qilinlar, xonning nomi xutbaga qo'shib o'qilardi. Ammo, amaldagi boshqaruvda ko'pgina ashtarxoniylar hukmdorlari saroydagi katta mavqega ega bo'lgan amaldorlar hamda yirik ulamolar qo'lida qo'g'irchok edilar. Nodirmuhammad, Subxonqulixon, Ubaydullaxon kabi xonlar markaziy hokimiyat obro'sini ko'tarishga, bebosh amirlar mavqeini cheklashga xarakat qilgan bo'lsalar-da, ularning bu harakatlari deyarli samara bermadi. Bu davrda markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo'lida to'plangan bo'lsa, joylardagi mahalliy hokimiyat viloyat hokimlari ixtiyorida bo'lgan.

Xulosa

Xulosa qilib shularni aytish mumkinki, Ashtarxoniylar davlati Shayboniylar davlati kabi O'zbek millati madaniyatiga o'ziga xos ijobiy tasir ko'rsatadi. Ashtarxoniylar davlatida ko'plab tarixiy inshootlar quriladi va eskilari yangitdan tamirlanadi. Subxonqulixon davrida xalqning yaxshi yashashi uchun harakatlar amalga oshiriladi. Imomqulixon hukumronligi davrida ham davlatni mustahkamlash borasida harakatlarni amalga oshiradi. Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi Shayboniylar davridan unchalik farq qilmagan. Bu davrda "saroy qutvali" lavozimi tashkil etiladi. Bu lavozim inshootlar qurilishini nazorat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulg'ozzi Bahodirxon "Shajarayi turk"
2. Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi" Toshkent, Sharq, 2001-yil
3. Bahodir Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" T, 2012-yil
4. Sagdullayev A.S. "O'zbekiston Tarixi" Toshkent.2019-yil

³ Bahodir Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" 253-262-betlar